



## 2020-yil yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

**532,7 mlrd. so'm**

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**- 14,1 %**

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi

**- 68,8 %**

Norasmiy sektor  
ulushi - **17,1 %**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida jami **532,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,2 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 75,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 14,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 141,6 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,8 % yoki 366,3 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor

hissasiga esa 17,1 % yoki 90,9 mlrd. so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **75,5 mlrd. so'm**

o'sish sur'ati - **141,6 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi - **366,3 mlrd. so'm**


o'sish sur'ati - **105,8 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **90,9 mlrd. so'm**

o'sish sur'ati - **103,0 %**

## Yanvar-fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,0 % punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 25,7 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,3 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,1 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.



## Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Jami qurilish ishlari hajmidan binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari ulushi 68,2 % ni, fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari 25,7 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha ulushi 6,1 % ni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 % ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 74,9 % (1,6 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 50,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 49,6 % ni (3,9 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 25,6 % punktga kamaydi va 19,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 80,5 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 25,6 % punktga ko'paydi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>532,7</b>	<b>109,2</b>	<b>75,5</b>	<b>141,6</b>
Termiz sh.	155,5	103,0	0,4	29,5
tumanlar:				
Oltinsoy	10,3	100,9	-	-
Angor	20,5	100,5	-	-
Boysun	38,5	110,8	-	-
Denov	42,3	103,8	-	-
Jarqoʻrgʻon	30,0	111,6	-	-
Qiziriq	20,9	101,3	1,7	85,7
Qumqoʻrgʻon	21,9	91,8	6,3	52,9
Muzrabot	19,3	104,2	-	-
Sariosiyo	83,0	131,3	56,8	168,4
Termiz	36,9	108,1	0,4	41,7
Uzun	14,9	133,6	5,3	-
Sherobod	20,3	137,7	4,6	129,0
Shoʻrchi	18,4	103,6	-	-

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 366,3 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 68,8 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 75,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 14,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 141,6 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 17,1 % yoki 90,9 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (% da)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boysun tumanida qurilish hajmining 85,1 %, Angor tumanida 81,8 %, Termiz tumanida 76,5 % hamda Termiz shahrida 91,2 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da )




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 11,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,2 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 521,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,8 % ni tashkil qildi.






## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sherobod tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 137,7 % ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 22,7 % ini tashkil qiladi.



## Yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 29,2 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 15,6 %, Denov tumaniga 8,0 % va Boysun tumaniga 7,2 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15**

**(71)230-85-81**